

INNOVATSION XARAKTERGA EGA BO'LGAN YONDASHUVLAR ASOSIDA O'QUVCHILARNING BILIM, KO'NIKMA, MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH

Mahmudova Muxtasar Abdubannob qizi

Toshloq tumani 10-maktab o'qituvchisi.

Farg'ona, O'zbekiston.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada innovatsion xarakterga ega bo'lgan yondashuvlar asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini shakllantirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish, axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan dars jarayonida unumli foydalanish, innovatsion ta'lim muhitini yaratish to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'limda innovatsiya, davlat ta'lim standart, motivatsiya, modernizatsiya, ko'nikma, malaka.*

Аннотация: *В данной статье представлена информация о формировании знаний, умений и компетенций учащихся на основе инновационных подходов, применения современных педагогических технологий в образовательном процессе, эффективного использования информационно-коммуникационных технологий в ходе урока, создания инновационной образовательной среды.*

Ключевые слова: *инновации в образовании, государственный образовательный стандарт, мотивация, модернизация, навыки, компетентность.*

Abstract. *This article provides information on the formation of students' knowledge, skills, and competencies based on innovative approaches, the application of modern pedagogical technologies to the educational process, the effective use of information and communication technologies in the course of the lesson, and the creation of an innovative educational environment.*

Key words: *innovation in education, state education standard, motivation, modernization, skills, competence.*

Ta'limda kompetentsiyaviy yondoshuvni amalga oshirish uchun ta'lim jarayonida innovatsion ta'lim muhitini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish uchun esa innovatsion xarakterga ega bo'lgan yondashuvga asoslangan ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish, axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan dars jarayonida foydalanish, davlat ta'lim standartlarini rivojlangan mamlakatlar darajasida tayyorlash va amaliyotga joriy etish, o'quvchilarning bilimi, ko'nikmasi va malakalari, shuningdek kompetentsiyalarini faollashtiruvchi turli hil darajadagi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bugunning dolzarb muammolaridan biridir.

Innovatsion xarakterga ega bo'lgan yondashuv asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini vujudga keltiriladigan innovatsion ta'lim muhitini shakllantirish uchun esa, eng avvalo o'quvchilardan so'nggi yillardagi fan-texnika yangiliklari bilan tanishib borishi va amaliyotga joriy etish muammolarini muntazam o'rganib borishi talab etiladi.

O'qitish jarayonida innovatsion ta'lim muhitini yaratish natijasida birinchidan, o'quvchilarning pedagogik jarayonga kirib borish jarayoni tezlashadi, ikkinchidan, o'quvchining pedagogik mahorati shakllana boradi, uchinchidan esa pedagogik kasblarga bo'lgan o'quvchining ishtiyoqi ortadi.

Lekin, o'qituvchining pedagogik faoliyatiga majmuali yondoshmasligi, kasbiy motivatsiyasining pastligi, pedagogik mahoratini oshirish bo'yicha o'z ustida muntazam ishlamasligi, ma'lum darajada ta'lim tizimini yanada rivojlanishiga, ta'lim-tarbiya jarayonini yuzaki tarzda tashkil etilishiga, qolaversa ta'lim maskanida innovatsion ta'lim muhitini shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Innovatsion ta'lim muhitini yaratish uchun ta'lim muassasalarida o'qituvchilarning malaka darajasini muntazam nazorat qilib borish zarur. Buning uchun muntazam ochiq darslar, o'zaro darslarni kuzatish va tahlil etish jarayonini yanada rivojlantirish lozim. Unda har bir o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olishi, o'qituvchining kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasi, pedagogik layoqati, shuningdek, o'qituvchilar tomonidan o'tkazilgan darslarni kuzatish va majmuali ya'ni pedagogik, psixologik va metodik tahlil qilish nazarda tutilishi muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida qayd etilgan innovatsion ta'lim muhiti o'quvchilarni ta'lim-tarbiya jarayoniga majmua holda joriy etish uchun esa, o'qituvchining pedagogik kompetentligini rivojlantirish zarur. Buning uchun esa, o'quvchilarning tayanch va fanlar bo'yicha kompetentsiyalaridan o'rinli va unumli foydalanishi, pedagogik kompetentsiyalarni shakllantirish jarayoniga majmuali yondashish talab etiladi.

O'qituvchining dars jarayoniga yondoshuvi natijasida kasbiy mahorati, malakasi va salohiyati, hamda o'qitishning sifati va samaradorligini oshirishga, shuningdek o'quvchilar bilim darajasini yanada yuqori pog'onalarga ko'tarilishini ta'minlaydi. Buning uchun esa o'qituvchilar o'qitishning zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalari vositalaridan foydalanish jarayoniga innovatsion yondashuv asosida yangiliklar kiritib borishi, modernizatsiya jarayonini tezlatishi va o'qituvchining pedagogik kompetentligini rivojlantirish orqali o'quvchilar bilim darajasi va salohiyatini ko'tarishi lozim.

O'qituvchining pedagogik mahoratini yanada rivojlantirish va innovatsion ta'lim muhitini yaratishning asosiy omillari o'qituvchilarning barcha mutaxassislik fanlari bo'yicha malaka talablarini innovatsion yondashuv asosida shakllantirishi, malaka oshirish kurslarini o'qituvchi ehtiyojiga asoslangan holda tashkil etish va unda o'qituvchining pedagogik tayyorgarligini kasbiy diagnostik tahlil qilishni yo'lga qo'yish va o'quvchilarda aniqlangan bo'shliqlarni bartaraf etish chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarur. Chunki, o'qituvchining zamonaviy bilimlarni, fan yangiliklarini bilishi, pedagogik layoqatining

rivojlanishini nazarda tutishiga va zamonaviy barkamol yosh avlodni tarbiyalashiga asos bo'ladi.

Shuning uchun innovatsion xarakterga ega bo'lgan yondashuv asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish uchun innovatsion ta'lim muhiti talablarini ta'lim-tarbiya jarayonida bajarish barobarida mavzular talqinini davriy ravishda innovatsion yondoshuv asosida modernizatsiyalab borish, ta'lim muassasalarining barcha fanlari kesimida elektron ishlanmalar yaratish, mavzular bo'yicha taqdimotlar tayyorlash, o'quvchilarning bilimini oshirish, o'qituvchining pedagogik tayyorgarligini diagnostik tahlil qilish mehanizmini yangi tahrirda ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ishlari bajarilsa, ta'lim jarayonida innovatsion ta'lim muhiti talab darajasida ortadi va o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malaka darajasi yanada yuqori darajaga ko'tariladi, pedagogik mahorati bosqichma-bosqich shakllana boradi. Shuningdek, o'quvchilarning pedagogik kasblarga bo'lgan ishtiyoqi ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Горская Г.И., Чуракова Р.Г. Мактабда ўқув-тарбия жараёнини ташкил этиш. Ўқитувчилар учун қўлланма. Тошкент-“Ўқитувчи” 1990 йил. 210 бет.
2. Ахмедов М., Солижонов И., Носиров Н. Инновацион таълим муҳитини шакллантиришда компетенцияларнинг аҳамияти. World social science. Scientific - practical journal. Москва. 3. 2018 г.
3. Парпиева, О. Р., Ҳожикаримова, Г. Т., & Назирова, А. М. (2021). FORMATION OF STUDENT PEDAGOGICAL SKILLS BASED ON THE REQUIREMENTS OF INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT. Экономика и социум, (6-2), 157-161.
4. Parpiyeva, O. R. (2022). Melikuzieva Zulhumor Sherqozi qizi, Abdullaeva Umidahon Uktamjon qizi. INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES, THEIR NATURE, TYPES AND THEORETICAL FUNDAMENTALS// Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 9, 123-126.
5. Парпиева, О. Р., & Раззоков, Б. Х. (2022). ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ТУРЛАРИ ВА НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ. Scientific Impulse, 1(5), 1204-1207.
6. Rakhmanovna, P.O., & Tairovna, I.Z. (2023). INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES TYPES. Scientific Impulse, 1(10), 950-955.
7. Parpiyeva, O. R. (2022). Ro „zimatova Arofatxon Maxmudjon qizi. TA“ LIM OLUVCHILARNI FANLARNI O „ZLASHTIRISHGA QIZIQTIRISH USULLARI// IJODKOR O 'QITUVCHI JURNALI, 5, 226-230.
8. Axmedov, M. M., Hojkarimova, G. T., Boybabayev, R. H., & Safarova, G. M. (2021). Supporting innovative approaches in the education system. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 38-41.



9. Parpiyeva, O. R., & Ruzimatova, A. (2022). CREDIT-MODULE SYSTEM OF EDUCATION. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(10), 76-80.

10. Avazboev, A., & Хожикаримова, Г. (2019(2019)). СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КРЕАТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ. Вестник науки, 5(6), 150-153

11. Парпиева, О.Р., & Болтабоева, Н. М. (2019). Этапы решения педагогической задачи. Теория и практика современной науки, (6 (48)), 388-390.

12. Parpiyeva, O. R. (2022). Innovative Educational Technologies, Their Nature, Types And Theoretical Fundamentals. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 9, 123-126.

13. Parpiyeva, O. R. (2022). ТА'ЛИМ ОЛУВЧИЛАРНИ ФАНЛАРНИ О'ЗЛАСHTIRISHGA QIZIQTIRISH USULLARI. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(22), 226-230.

14. Парпиева, О. Р., & Назирова, А. М. (2021). ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ МУҲИТИ ТАЛАБЛАРИ АСОСИДА ТАЛАБАЛАРНИНГ ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. Экономика и социум, (6-2 (85)), 157-161.

15. Qaxxorova Barchinoy Abdiraximovna, Ikromova Komila Hamidullo qizi, Nazirova Arofatxon Maxmudjon qizi //INNOVATIVE METHODS USED IN THE EDUCATIONAL PROCESS// IJODKOR O'QITUVCHI JURNALI. 5 IYUN / 2022 YIL / 19 – SON. 277-283 betlar.

16. Razzokov Bakhtiyor Khabibullaevich, Yokubjonova Mukaddaskhon Khusanboy kizi //Future Technological Education Developing Professional Skills for Teachers//. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 7-2022, 178-180 pages.